

SHE'RIYAT USLUBLARI

Boboqulova Gulmira Eshonqul qizi
Abu Hafis Kabir xususiy maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiy janrlardan biri she'riyat haqida, uning rivojlanish borasida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *She'r, asar, adabiyot, badiiy adabiyot, nasr, uyg'onish davri, Rossiya, sharq, musulmon, Alisher Navoiy, qofiya, poetik sintaksis.*

She'riyat — she'riy asarlar majmui. Dastlab she'riyat deyilganda, umuman, badiiy adabiyot tushunilgan. She'riyat badiiyatga daxldor sanalgan. Insoniyat tarixida faqat she'r shaklida yozilgan bitiklarga so'z san'atiga tegishli hisoblab kelingan. Garchi qadim zamonlarda ham nasrga oid asarlar yaratilgan bo'lsada, ular nafis san'atga, badiiy adabiyotga tegishli emas, deb qaralgan. She'rning muayyan ichki tartib asosiga qurilganligi, oddiy so'zlashuvga o'xshamasligi, hamma ham fikru tuyg'ularini bu shakdda ifodalay olmasligi unga qandaydir sirlilik, mumtozlik maqomini beradi. Bunday qarash butun dunyoda hukmron bo'lgan. Yevropada Uyg'onish davriga kelibgina nasriy asarlar badiiy adabiyotga tegishli ekanligi tan olingan. Rossiyada 19-asr boshlarida nasriy asarlar ham badiiy adabiyot namunalari sanaladigan bo'ldi. Musulmon Sharqida esa, nasrni so'z san'atiga tegishli, deb hisoblamaslik 19-asr oxirlariga qadar davom etib keldi. Alisher Navoiy „Hayrat ulabror“ asarida chamanzordagi gul kabi go'zal va tartibli she'r (nazm)ning tuproqqa qorishib yotgan chechak singari bo'lgan nasrdan mislsiz darajada ustun ekanligini „Nazm anga gulshanda ochilmog'lig'i, Nasr qaro yerg'a sochilmog'lig'i“ va „Bo'lmasa e'joz (mo'jiza) maqomida nazm, Bo'lmas edi Tengri kalomida nazm“ tarzida ifoda etadi. Shuning uchun ham o'zbek adabiyoti tarixida she'r ustuvor o'rin tutadi. She'rning axborot berish vositasigina bo'lgan so'zlashuvdan yoki fikrni tushuntirish yo'li bo'lmish ilmiy bayondan o'zining alohida qurilishi, nutqning odatdagi talablariga bo'ysunmasligi bilan ajralib turishi, kishida hissiyot uyg'otadigan ohangga egaligi ajdodlarimizda unga nisbatan ehtiromli munosabat uyg'otgan. Shahriga xos musiqiylik, tartiblilik, shartlilik uni o'z-o'zidan ijodga, badiiyatga daxldor qilib qo'rsatgan. she'r tufayli inson nutqi jarangdor musiqiylik, tugallik, butunlik va uyg'unlik kasb etadi. Chunki shahrida so'zning sehrli jozibasi, odam ruhiyatiga ta'sir ko'rsata oladigan darajadagi ko'tarinkiligi namoyon bo'lgan. Qadimda shahriga ijro etiladigan, binobarin, kishilar tomonidan bevosita idrok qilinadigan hodisa sifatida qaralgan. Minglab yillar mobaynida she'r asosan, inson tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatish vositasi sanalgani uchun ham uning musiqiyliigi, ohangdorligi va jarangdorligiga alohida e'tibor berilgan. She'r namunalari faqat mazmuni bilan emas, balki ifoda tarzi orqali ham o'quvchilar va tinglovchilarni rom etgan. Bu hol she'r namunalarining kuylaydigan darajadagi qat'iy akustik xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo qilgan. shahrida muayyan musiqiy zarb

(ritm) va qofiya, poetik sintaksis va inversiyalar qo'llanishi so'zlarning harakatchanligi, ohangdorligi va yoqimlilikini ta'minlaydi. Bu hol mazmun tovlanishlariga erishish borasida shahriga tuganmas imkoniyatlar beradi.

She'r tuzilishida, asosan, 5 shakliy unsur ishtirok etadi, bular: vazn, qofiya, band, takrir va tajnis. Bu jihatlarda nasrda ham uchrashi mumkin. Biroq ular nasrda muntazam ravishda mavjud emas. Vazn — she'r o'lchovi yoki me'yorini bildiradi. U she'riy nutqni nasriy nutqdan ajratib turuvchi asosiy unsurlardandir. Vazn ba'zan saj'da va aruzning bahri ta'vil shaklida ham uchrashi mumkin. Qofiya esa ohangdosh so'zlarni she'r misra (bayt, band)larida tizimli bo'lib kelishidir. U yeaj' va boshqalar shakldagi asarlarda ham qo'llanadi. Band — she'rning alohida qofiyalanish tartibiga ega ritmik bo'lagi. U qofiya va intonatsiya bilan birikkan misralarning muayyan tartib asosida takrorlanishidir. Vazn va bandni tildan ajralgan holda, turli jadvallar va belgilar bilan ham ko'rsatish mumkin. Ammo qofiya, takrir (so'z takrori) va tajnis (jinsdosh so'zlar) til materialidagina ko'rinadi.

She'r tuzilishi taraqqiyotida uning milliy va baynalmilal tomonlari ko'zga tashlanadi. Milliy tomoni milliy til tabiatiga suyanganligida ko'rinadi (mas, qofiya milliy til bilan bog'liq milliy unsur bo'lib, uning ifodalanishida yaqqol namoyon bo'ladi). Tarixan xalqlarning o'zaro bir-birlariga yaqinlashishlari natijasida turli xalqlarning She'r tuzilishi ham o'zaro yaqinlashadi. Mas, o'zaro yaqin milliy til guruhlarida She'r tuzilishi bir-biridan keskin farq qilmaydi (mas, turkiy xalqlar). She'r tuzilishining baynalmilal tomoni esa takomillashuv yo'li bilan taraqqiy etib, shakl o'zgarishi tarzida sekin-asta o'zgarib borgan. She'r tuzilishi unsurlari turli millatlar uchun mushtarak bo'lishi ham mumkin (mas, barmoq va aruz aksar turkiy xalqlarda ishlatib kelinadi; band ham ko'plab xalqlar She'r tuzilishi uchun baynalmilal hodisa; sonet yoki g'azal jahonning ko'pgina xalqlari she'riyatida qo'llangan va qo'llanmoqda).

She'r tuzilishi tarixiy taraqqiyot, davr uslubi va madaniyadabiy an'analar bilan uzviy aloqada yashaydi. Bir She'r tuzilishida turli she'r tizimlarining imkoniyatlari mavjud bo'lishi va ular tarixiy taraqqiyot natijasida birinketin ro'yobga chiqishi mumkin. Har qanday She'r tuzilishidagi vazn asosida bo'g'in turadi. Biroq she'r tizimlarining xarakteri bo'g'inning qaysi xususiyatiga tayanishiga bog'liq. Sillabik tizim, shu jumladan, o'zbek barmoq tizimi bo'g'inlarning soniga, tonik tizim urg'usiga, sillabiktonik tizim esa bo'g'inning urg'uli va urg'usizligiga tayanadi, aruz esa bo'g'inning cho'ziqqisqaligiga qaraydi.

O'zbek She'r tuzilishi tarixida quyidagi holatlar nazarda tutilishi she'rshunoslar tomonidan ta'kidlanadi:

1) turkiy xalqlar, xususan, o'zbek She'r tuzilishining „folklor tipi“ davri. Bunda sintaktik parallelizmga tayanilgan. Misralar dastlab bo'g'in soni jihatidan teng bo'lmagan, ularni she'riy alliteratsiya, tovush usullari va so'z takrori uyushtirgan, qofiyalar bilan so'z takrorlari aralash holda misra ichida joylashgan (qofiyaning misra oxiriga chiqishi keyingi davrlarga xos hodisadir). Buni o'ziga xos barmoq she'r tizimi davri, deyish ham mumkin;

2) aruz vazniga asoslangan She'r tuzilishi davri. Aruz arab xalq og'zaki ijodi negizida 8-asrda shakllangan va islom dinining yoyilishi bilan avval Eronga, keyin O'rta Osiyo xalqlari, xususan, o'zbek adabiyotiga kirib kelgan va 11-asrdan qo'llana boshlagan. Juda ko'plab durdona asarlar shu She'r tuzilishida yaratilgan;

3) erkin vaznga asoslangan She'r tuzilishi o'zbek adabiyotiga 20-asrning 20-yillarida rus tonik she'r tizimi ta'sirida kirib keldi. Biroq bu vazn o'lchov, qofiya, band jihatidan erkin bo'lsada, alohida tizim emas, balki barmoq vaznining sodda, qo'shma, aralash, murakkab kabi vazn turlaridan biridir;

4) bo'g'inurg'u, miqdorurg'u va qorishiq she'r tizimlari. Bular nisbatan keyinroq paydo bo'lgan tizimlardir.

Biroq yuqorida sanalganlardan faqat 2 tasi — barmoq va aruz tizimlari o'zbek She'r tuzilishining asosini tashkil etadi. Negaki, o'zbek she'riyati, asosan, barmoq va aruzda yaratilgan. Qolgan she'r tizimlari — erkin vazn, bo'g'inurg'u, miqdorurg'u va qorishiq tizimlar u qadar keng tarqalmagan.

Asrlar davomida shakl va mazmun jihatidan beqiyos taraqqiy etgan, jahon mumtoz adabiyoti xazinasini yangi badiiy kashfiyotlar bilan boyitgan Sharq she'riyati o'zining boy nazariy zaxirasiga ham ega bo'lgan. Arab, fors va o'zbek she'riyatining taraqqiyot tarixi jarayonida bir qator adabiy-tasviriy qonun-qoidalar ham shakllanib, tobora rivojlangan va boyib borgan. Chunonchi, badiiy adabiyot taraqqiyotining muayyan davrida asrlar davomida yuzaga kelgan tajribalarni umumlashtirib, badiiy asarning mohiyati va qonuniyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan ilmiy-nazariy asarlar paydo bo'la boshlagan. Shu tariqa badiiy adabiyotning, jumladan, she'riyatning muhim qonuniyatlarini tadqiq etib, umumlashtirib beruvchi adabiyot nazariyasi ham vujudga kelgan.

She'r nimadan tuzilgan? U, eng avvalo, vazndan iborat. Ularni aruz vazni, barmoq vazni va erkin (sarbast)ga ajratamiz. Arablar istilosidan keyin turkiy xalqlar she'riyatiga ham aruz she'riy tizimi kirib keladi. 9-10-asrlarda esa arab va fors xalqlari she'riyatida mumtoz qofiya nazariyasi yaratiladi. Bu nazariya tovushlar uyg'unligiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qofiya yagona tovush(harf) takroriga asoslanadi va bu harf raviy (arabchada – qofiyadagi undosh tovush) deb ataladi. Raviy so'z o'zagi, yasama so'zlarda negiz oxiridagi undosh, cho'ziq unli, ba'zan esa qisqa unlilarning aynan takrorlanishi tufayli yuzaga keladi. Masalan, "gul-bulbul" so'zlaridagi "l", "tortar-ortar" so'zlaridagi oxirgi "r", "vafo-jafo" so'zlaridagi "o", "bahona-zamona" so'zlaridagi oxirgi "a" tovush-harflari raviy hisoblanadi. Mazkur nazariya talablariga ko'ra, raviysiz qofiya vujudga kelmaydi.

XX asr boshlaridan o'zbek she'riyatida barmoq vazni yetakchilik qila boshladi. Ushbu nazariyaga ko'ra, qofiya tirkak tovushga asoslanadi. Qofiyalanuvchi so'zlar tarkibidagi talaffuz usuli va o'rni jihatdan bir-biriga yaqin barcha tovushlar tirkak tovush bo'la oladi. Qofiyaning to'liq (to'q), noto'liq (och), sodda, murakkab, ochiq, yopiq, taxminiy shakllari mavjud. Umuman, qofiya odatda she'riy misralar oxirida kelib, ularni ohangdoshlik, uyg'unlik va mazmuniy yaxlitlik asosida birlashtiradi. Siz

hayotda qofiyali soʻzlaydigan odamlarni ham koʻrgan boʻlsangiz kerak. Odatda ayniqsa, xalq baxshilari tilida qofiyali soʻzlar koʻp uchraydi. Qofiya birinchi oʻrinda soʻzlarning oʻzaro shakldosh kelishidir. Ammo, u sheʼrning maqsadiga xizmat qilishi shart.

Boshqacha aytganda, qofiya soʻzi arab tilidan olingan boʻlib, “ergashish, izidan borish” maʼnolarini anglatadi. Sheʼriy misralarning muayyan oʻrnida ohangdosh soʻz yoki soʻz birikmalarining izchil takrorlanib kelishidir. Qofiya sheʼrning mazmuni, janri, shakli va kompozitsiyasida muhim oʻrin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ulugʻbek Hamdam. Erkin adabiy tafakkur va bugungi oʻzbek sheʼriyati. Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati. 2013 48- son.
- 2.Fahriyor. Darsning shakli. Tugʻilgan kun.
- 3.Fahriyor. Geometrik bahor. 2004
- 4.Jabborov N. Yangi oʻzbek sheʼriyatida tamoyillar.